



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARI

Surayyo Tojimurodova, Dilshoda Norquvvatova

TDIU MMT-95-guruh talabalari

***Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada davlat byudjeti xarajatlari, respublika va mahalliy byudjet xarajatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti xarajatlari O'zbekiston Respublikasi moliyaviy siyosatida qanchalik ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan bo'lib, o'tgan yilgi davlat byudjeti xarajatlari prognozi keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi, ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlari tarkibi, Respublika byudjeti, mahalliy byudjet, ijtimoiy soxa va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash xarajatlari.*

Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy mohiyati uning turli-tuman ko'rinishlari (turlari) orqali namoyon bo'ladi. Xarajatlarning har bir turi esa o'zining miqdoriy va sifat xarakteristikasiga ega. Bunda ularning sifat xarakteristikasi voqelikning iqtisodiy tabiatini ifodalab, byudjet xarajatlarining mo'ljallanganligini, miqdoriy xarakteristikasi esa ularning o'lchamini (miqdorini, hajmini) aniqlashga imkon beradi. Davlat byudjeti iqtisodiyotga umuman ta'sir qiladi, chunki u butun xalq xo'jaligining byudjeti funksiyasini bajaradi. Davlat byudjeti uning ishlab chiqarishini rag'batlantiruvchi moddiy ishlab chiqarish sohasida katta rol o'ynaydi. Budget mablag'lari ham jismoniy (ham alohida korxonalar doirasida), ham jamoat (xalq xo'jaligida) mablag'larning aylanishini ta'minlash uchun ishlatiladi. Amaldagi va boshqa xarajatlarni ta'minlab, mavjud va yangidan ishga tushirilgan korxonalarda kapital qo'yilmalar va aylanma mablag'larni byudjet tomonidan

moliyalashtirish, uning uzluksiz ishlashi va bir xilligini ta'minlab, alohida korxonalaridagi mablag'larning aylanishiga kiritilishi mumkin.


Davlat byudjeti xarajatlari bu davlatning markazlashgan pul fondida jamlanadigan pul mablag'larini taqsimlash, qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan, davlat bilan davlat byudjetidan mablag' oluvchilar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy pul munosabatlaridir. Davlat byudjetining xarajatlari markaziy hukumat va mahalliy hokimiyatlar zimmasidagi vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatini moliyaviy ta'minlashga yo'naltirilgan byudjet mablag'laridir, ularning turlari va shakllari, tarkibi va tuzilishi qator omillarga bog'liq.

Iqtisodiy mazmun mohiyatiga ko'ra byudjet xarajatlari joriy va kapital xarajatlarga bo'linadi;

✓ Davlat byudjetining joriy xarajatlari mahalliy davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, byudjet tashkilotlari, byudjetdan mablag' oluvchilar, davlat tomonidan byudjet tizimi byudjetlariga va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga dotatsiya, subvensiya va subsidiya shaklidagi moliyaviy yordam ko'rsatish uchun ajratilgan pul mablag'laridir.

✓ Davlat byudjetining kapital xarajatlari innovatsiya va investitsiya faoliyatini mablag' bilan taminlash maqsadlarida yo'naltirilgan ya'ni davlat dasturiga kiritilgan qurilish va kapital va tamirlash maqsadlari uchun ajratilgan mablag'lar kiradi.

Davlat byudjeti soxalar kesimida eng katta ulushni tutgan xarajatlar; Ijtimoiy xarajatlar, ijtimoiy soxa xarajatlari, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi xarajatlari, iqtisodiyot xarajatlari, investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish, davlat boshqaruvi organlari xarajatlari, sud organlarini saqlash xarajatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Qoraqalpog'iston respublikasi viloyatlar tuman shaxar zaxira jamg'armalari, Boshqa va jami xarajatlar tashkil etgan.



1-rasm. Davlat byudjeti xarajatlarini soxalar kesimida tutgan ulushi¹.

Davlat byudjeti xarajatlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- ✓ Ijtimoiy soxa va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash xarajatlari.
- ✓ Nodavlat va notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash xarajatlari.
- ✓ Iqtisodiy xarajatlar.
- ✓ Markazlashtirilagan investitsiyalarni molyalashtirish xarajatlari
- ✓ Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari.
- ✓ Sudlarni saqlab turish xarajatlari
- ✓ Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari.
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent

¹ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi "Ochiq Byudjet" portal ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

shahri shahar byudjetining tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari.

✓ Boshqa xarajatlar.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari².mlrd.so'm

Xarajatlar	Yillar		
	2021	2022	2023
Davlat budjeti xarajatlari jami	281 097,4	236 691,9	281 097,4
Davlat qarzig'a xizmat ko'rsatish va qoplash xarajatlari	2 238,2	3 528,5	8 220,6
Iqtisodiyot xarajatlari(mlrd.so'm)	21 169,7	34 090,9	42 926,9
Ijtimoiy xarajatlar	92 013,2	117691,9	137246,8
Boshqa xarajatlar(mlrd.so'm)	31072,1	38 107,5	44399,4
Sud organlarini saqlash xarajatlari	849,8	1 117,6	1 295,4
O'zini o'zi boshqarish organlari xarajatlari	1 037,1	965,4	760,9
Investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish	29 900,1	27 807	29 581,6
Ijtimoiy soxa va axolini ijtimoiy qollab quvvatlash	80 671,8	105 589,1	122 348,7
Byudjetdan tashqari transfertlar	10 744,2	11 092	13 797,5
Axolini uy joy bilan taminlash dasturi	597,5	1 010,	1 100,7

² <https://openbudget.uz> saytidan muallif tomonidan o'zlashtirilgan

Davlat tomonida NNT qo'llab quvvatlash xarajatlari	95,6	103,5	326,8
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasi Qoraqalpog'iston Respublikasi tuman va shahar byudjetlari zaxira jamg'armalari	1 401,8	1 811	1 720,4

Yuqoridagi malumotlarga asoslanib davlat byudjeti xarajatlari yillar kesimida solishtirilganda byudjet xarajatlari ko'rsatkichlari o'sib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning rivojini mahalliy byudjetlar xarajatlari qismida o'zining yorqin ifodasini topadi. Mahalliy hokimiyat organlarining asosiy vazifasi shu mintaqadagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat. Asosan, yangi tumanlarda aholi sonining o'sishi, turar joy-kommunal xo'jalikni rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirish mahalliy byudjetlar xarajatlarini o'sishini talab etadi. Mahalliy byudjet xarajatlarning o'sishi yangi qurilishlar qurilishi bilan, turar-joy va madaniy-maishiy obyektlarni saqlash xarajatlarini o'sishi bilan bog'liq bo'ladi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining tarkibiy tuzilishi ham o'ziga xos tasnif va tavsifga ega. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini ikki guruhga tasniflash maqsadga muvofiq:

- ✓ 1 darajali - Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti , viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahrining shahar byudjeti xarajatlari;
- ✓ 2 darajali - Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri tarkibidagi tuman va shaharlar byudjetlari xarajatlaridan iborat.

Ma'lumki, mahalliy byudjetlar daromadi asosan mahalliy soliqlar, soliq funksiyasini bajaruvchi majburiy to'lovlar, shuningdek, qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan tarkib topib, shakllangan mablag'lar mahalliy ahamiyat kasb etuvchi chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun sarf-xarajat qilinadi.

Respublika byudjeti daromdlari asosan umumdavlat soliqlari va qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa moliyaviy manbalardan shakklanib, asosan umumjamiyat ahamiyat kasb etuvchi chora-tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida sarf-xarajatlar amalga oshiriladi.

2-jadval

2023-yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar, xamda Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlarini quyidagi jadvalda keltirilgan³: mlrd.so'm

No	Hududlar nomi	Daromadlar	Xarajatlar
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2703.3	5375.7
2.	Andijon viloyati	3802.7	6608.2
3.	Buxoro viloyati	3817.2	4463.1
4.	Jizzax viloyati	2184.9	3469.3
5.	Qashqadaryo viloyati	4561.2	8380.2
6.	Navoiy viloyati	2993.6	2993.6
7.	Namangan viloyati	3713.4	6613.3
8.	Samarqand viloyati	4958.8	7155.1
9.	Surxondaryo viloyati	3042.3	6291.2
10.	Sirdaryo viloyati	1406.1	2492.3
11.	Toshkent viloyati	5866.2	5866.2
12.	Farg'ona viloyati	5437.8	7618.8
13.	Xorazm viloyati	2719.2	4160.6
14.	Toshkent shahri	7739.3	7739.3
15.	Jami	54946	79226.9

³ O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 30.12.2022- yildagi O'RQ-813-sonli qarori muallif tomonidan o'zlashtirilgan.
www.pedagoglar.org

Ushbu jadvalda 2023-yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar, xamda Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari tahlil qilingan. Toshkent shahri daromadlari va xarajatlari 7739.3 mlrd so'm, Toshkent viloyati daromadlari va xarajatlari 5866.2 mlrd so'm, navoiy viloyati daromadlari va xarajatlari 2993.6 mlrd so'mni tashkil qilib mahalliy byudjetlar ichida bu 3ta hududlar daromadlari xarajatlarini to'liq o'zi qoplay olishi prognoz qilingan. Qolgan barcha hududlarga respublika byudjetidan byudjetlararo transfert to'lovlari ajratilgan.

Mahalliy byudjet xarajatlari chiqimlarning aniq turlari orqali namoyon bo'ladi. Byudjet xarajatlari konkret turlarining xilma-xilligi esa, o'z navbatida, quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi:

- ✓ mahalliy hududning iqtisodiy tabiati va funktsiyalari;
- ✓ mahalliy hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi;
- ✓ byudjetning milliy iqtisodiyot bilan bog'langanligi;
- ✓ iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganlik darajasi;
- ✓ byudjet mablag'larining namoyon bo'lish shakllari.

Bu omillarning qo'shilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida har qanday mahalliy byudjet xarajatlarining yoki bu tizimini vujudga keltiradi.

Davlat byudjeti davlat resurslarini jalb qilish va sarflashning asosiy vositasi bo'lib, siyosiy kuchga iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish, uning tarkibiy tuzilishini moliyalashtirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishni rag'batlantirish, aholining kam himoyalangan qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun real imkoniyat beradi.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan jamiyatning moliyaviy tizimini o'zgartirish yo'nalishi, davlat byudjet siyosati zamon talablariga qanchalar javob berishiga bog'liq.

Moliyaviy markazlashtirish tufayli mablag'lar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim sohalariga, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini

muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni tayyorlashga yo'naltirilmoqda. Shunday qilib, xarajatlarni taqsimlashning alohida qismi sifatida davlat byudjeti aniq ijtimoiy maqsadni amalga oshiradi –bu milliy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Xarajatlarni taqsimlashning ma'lum bosqichlaridan o'tgan va aholiga kengaytirilgan ko'payish, ijtimoiy va madaniy xizmatlar, Moliyaviy markazlashtirish tufayli mablag'lar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim sohalariga, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni tayyorlashga yo'naltirilmoqda. Shunday qilib, xarajatlarni taqsimlashning alohida qismi sifatida davlat byudjeti aniq ijtimoiy maqsadni amalga oshiradi –bu milliy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Xarajatlarni taqsimlashning ma'lum bosqichlaridan o'tgan va aholiga kengaytirilgan ko'payish, ijtimoiy va madaniy xizmatlar, mudofaa va boshqaruv uchun kengaytirilgan ehtiyojlarni qondirish uchun davlatga kirgan, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadningmuayyan qismini bajaradigan ob'ektiv taqsimot munosabatlarining mavjudligining iqtisodiy shakli.

Hozirgi kunda respublikamizda ijtimoiy ta'minot tizimini yaxshilash maqsadida, shuningdek joylardagi "Mahalla" jamg'armalari, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari, ya'ni mahalla fuqarolar yig'inlari, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy va mahalliy bo'limlari ish olib boradi.

Ular tomonidan respublikamiz aholisiga ijtimoiy yordamning quyidagi turlari ko'rsatilmoqda:

- bolali oilalarga nafaqalar - homiladorlik va tug'ruq bo'yicha nafaqa; bola tug'ilganda bir marta beriladigan nafaqa; bola 2 yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun beriladigan nafaqa va voyaga etmagan bolalari bor oilalarga nafaqa;

- ijtimoiy nafaqalar - tug'ma nogironlar va boshqa toifalardagi nogironlarga, ish staji yo'q qariyalarga, boquvchisini yo'qotgan oilalarga;

- ijtimoiy ta'minot muassasalarini saqlash - qariyalar va nogironlar uylari mehribonlik uylari, kasalmand bolalar uchun internatlar;

- turli imtiyozlar - bepul va arzonlashtirilgan narxda transport vositalari va nogironlar aravachalari berish, sanatoriy-kurort yo'llanmalari bilan ta'minlash, to'lovlar va soliqqa doir imtiyozlar;

- kam ta'minlanganlik bo'yicha nafaqalar. Bunday ijtimoiy yordam dasturlarini moliyalashtirishning asosiy manbai davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalar hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Ushbu maqolada yoritilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, davlat byudjeti xarajatlari bir davlatning moliyaviy faoliyatini amalga oshirish uchun sarflangan mablag'larni ifodalaydi.

Bu xarajatlar o'z ichiga qo'llab quvvatlash, ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilmalarni rivojlantirish, xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy rivojlanishni tashkil etish va boshqa sohalarda sarflangan mablag'larni o'z ichiga oladi.

Davlat byudjeti xarajatlari, davlatning moliyaviy siyosati va strategiyasiga asoslangan ravishda tuziladi va amalga oshiriladi.

Bu xarajatlar, davlatning moliyaviy resurslarini to'plash va ularga qanday qo'llash haqida qaror qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat byudjeti xarajatlari, davlatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, fuqarolarning darajasini oshirish va umumiy ravishda moliyaviy barqarorlikni saqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Bu xarajatlar tuzilishi va amalga oshirilishi davlatning moliyaviy siyosati va strategiyasiga bog'liq bo'lib, davlatning moliyaviy faoliyatini boshqa sohalarga ta'sirini ko'rsatadi.

Davlat byudjeti xarajatlari bilan bog'liq takliflarga xarajatlar ustida monitoring va baholash tizimini mustahkamlash ya'ni xarajatlarni effektiv va samaradorlikni oshirish maqsadida mustahkamlash uchun tadbirlar olib borish kerak.

Bu tadbirlar mablag'larni qanday sarflash, qaysi sohalarga o'zgarishlar kiritishni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu esa fuqarolarning va jamiyatning davlat tomonidan sarflangan mablag'larni qanday qo'llanishini tushunishga imkon beradi va moliyaviy barqarorlikni taminlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
2. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
3. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
4. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
5. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
6. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
7. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
8. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
9. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
10. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
11. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
12. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023

13. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
14. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
15. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
16. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
17. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
18. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
19. O'roqov U. Y., qizi Rahimova N. J. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 3. – С. 229-239.